



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 30-oktabr

605-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 29-oktyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonlarini tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 17-oktabrdagi PQ–367-son qarori ijrosi haqida”gi 514-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

Chet mamlakatlarda tashkillashtirilgan holda mehnat qilishning institutsional asoslarini mustahkamlash, xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish istagidagi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlarini himoya qilish, sohada sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, ushbu jarayonga xususiy sektorni yanada kengroq jalb qilish va ko‘rsatiladigan xizmatlarni raqamlashtirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonlarini tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 17-oktabrdagi PQ–367-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 29-oktyabrdagi 514-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 29-oktyabrdagi 514-6-0-Q/24-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-oktabrdagi PQ–367-son qarori bilan: belgilanishicha, fuqarolarning xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish va ularga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish maqsadida 2024-yil 1-noyabrdan boshlab:

xorijiy ish beruvchilar tomonidan taklif qilinayotgan ish o‘rinlari haqidagi barcha ma‘lumotlar Migratsiya agentligining (keyingi o‘rinlarda Agentlik) elektron platformasi, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda ochiq e‘lon qilib borilishi;

Agentlikning elektron platformasida fuqarolarga o‘zining rezyumesini shakllantirish va joylashtirish hamda e‘lon qilingan ish o‘rinlari bo‘yicha tanlovlarda erkin ishtirok etish imkoniyati yaratilishi;

vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun tashkillashtirilgan holda rivojlangan mamlakatlarga chiqib ketayotgan fuqarolarga tijorat banklari tomonidan Migratsiya jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda Jamg‘arma) mablag‘lari hisobidan 10 million so‘mgacha miqdorda Markaziy bankning asosiy stavkasidan to‘rt foiz bandga yuqori stavkada ikki yil muddatga mikrokreditlar ajratilishi;

Agentlikning hududiy filiallari tomonidan fuqarolarning xorijda ishga joylashish bilan bog‘liq, shu jumladan, “ishchi viza”ga oid hujjatlarini rasmiylashtirish bo‘yicha bepul konsalting xizmatlarini ko‘rsatish amaliyoti yo‘lga qo‘yilishi;

2024-2026-yillarda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish istagini bildirgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash dasturi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Agentlik ushbu dasturning o‘z vaqtida va samarali ijro etilishini ta‘minlashi hamda har olti oyda dasturdagi chora-tadbirlarning bajarilishi yuzasidan Migratsiya bo‘yicha respublika komissiyasiga hisobot berib borishi;

belgilanishicha, xorijga ishlash uchun ketmoqchi bo'lgan fuqarolarni kasb-hunar va chet tillariga o'qitish tizimini zamon talabiga moslashtirish, shuningdek, mazkur yo'nalishda xalqaro tan olingan dasturlar va malaka sertifikatlarini joriy qilish maqsadida 2024-yil 1-dekabrda boshlab:

a) Agentlik tomonidan ta'lim tashkilotlarida xorijga ishga ketmoqchi bo'lgan fuqarolarni kasb-hunar va chet tillariga o'qitish bo'yicha buyurtmalar joylashtirish tartibi joriy etilishi;

bunda Agentlik buyurtmalari asosida:

kasbiy ta'lim tashkilotlarida xorijga ishga ketmoqchi bo'lgan fuqarolar uchun davlat granti asosida alohida qabul parametrlari belgilanishi;

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan xorijga ishga ketmoqchi bo'lgan fuqarolarni o'qitish uchun Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi hisobidan grantlar ajratilishi;

b) Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi hisobidan xalqaro tan olingan ta'lim dasturlari bo'yicha kasbga o'qish uchun ta'lim kreditlarini ajratish tartibi joriy qilinishi;

v) Agentlikning elektron platformasida kasbiy ta'lim muassasalari va kasbiy ko'nikmalar markazlarida faoliyat yuritayotgan chet tili fani o'qituvchilarining reytingi tuzilishi;

bunda ingliz, koreys, nemis va yapon tillari bo'yicha kamida V1 yoki unga tenglashtirilgan darajadagi xalqaro sertifikat olgan bitiruvchilari soni eng ko'p bo'lgan 50 nafar o'qituvchiga Jamg'arma hisobidan 50 million so'mdan subsidiya to'lanishi;

g) xususiy bandlik agentliklariga chet elda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish istagida bo'lgan fuqarolarni kasb-hunar va chet tillariga o'qitish bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish hamda ushbu jarayonga hamkor xorijiy ish beruvchilarni jalb qilish huquqi berilishi;

bunda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga ta'lim tashkilotlarining bo'sh bino va inshootlarini xususiy bandlik agentliklariga o'quv kurslarini tashkil qilish uchun to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida tekin foydalanishga berishga ruxsat etilganligi;

Agentlik, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining:

2-ilovadagi kasbga o'qitish muassasalarining amaldagi moliyalashtirish tartibini saqlagan holda Agentlik tasarrufiga o'tkazish va ular negizida Fuqarolarni (yoshlarni) chet tillariga o'qitish va xorijiy davlatlarda ishlashga maqsadli tayyorlash markazining filiallarini tashkil qilishi;

xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish istagida bo'lgan fuqarolarni o'qitish uchun 3-ilovadagi kasbga o'qitish muassasalarini Agentlikka birlashtirish to'g'risidagi takliflari ma'qullanganligi;

Agentlikka ushbu qarorga 2 va 3-ilovalardagi kasbga o'qitish muassasalarining bo'sh bino va inshootlaridan tekin foydalanishga, ularni rivojlantirish uchun Jamg'arma va Agentlikning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan zarur moliyaviy resurslarni yo'naltirishga hamda ularda xorijiy hamkorlar bilan qo'shma loyihalarni amalga oshirishga ruxsat etilganligi;

belgilanishicha, Agentlikning hududiy filiallari rahbarlari bir vaqtning o'zida Fuqarolarni (yoshlarni) chet tillariga o'qitish va xorijiy davlatlarda ishlashga maqsadli tayyorlash markazining hududiy filiallari direktorlari hisoblanishi;

xorijda ishga joylashish xizmatlari bozorida takliflarni ko'paytirish hamda ushbu yo'nalishda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadida shunday tartib o'rnatilganki, unga muvofiq 2024-yil 1 dekabrda boshlab:

xususiy bandlik agentliklari tomonidan litsenziya olish uchun zaxira qilinadigan mablag'lar miqdori bazaviy hisoblash miqdorining sakkiz ming besh yuz baravaridan to'rt ming baravarigacha tushiriladi;

xususiy bandlik agentliklariga zaxira qilingan mablag'larni Agentlik rozilgisiz sarflamaslik sharti bilan tijorat banklaridagi depozitlarga joylashtirish va depozitlardan olinadigan foiz daromadlarini erkin ishlatishga ruxsat beriladi;

Agentlik tomonidan xorijiy ish beruvchilar va rekruting tashkilotlaridan fuqarolarni xorijda ishga joylashtirish bo'yicha olingan takliflarni xususiy bandlik agentliklari o'rtasida ochiq tanlov yo'li bilan taqsimlash tartibi joriy etiladi;

2026-yil 1-yanvarga qadar Agentlikning fuqarolarni tashkillashtirilgan holda tanlash, xorijga ishga yuborish va ishga joylashtirish bilan bog'liq funksiyalari bosqichma-bosqich xususiy bandlik agentliklariga o'tkazilishi;

2024-2026-yillarda tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirishga oid chora-tadbirlar dasturi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijga chiqib ketayotgan fuqarolarning shaxsiy mas'uliyatini oshirish maqsadida 2025-yil 1-yanvardan boshlab shunday tartib o'rnatilganki, unga muvofiq:

fuqarolarning xorijdagi qonuniy mehnat faoliyati davlat tomonidan rag‘batlantiriladi, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasiga qaytib kelganida ularga o‘z biznesini boshlashi uchun yer uchastkalari va davlat mulki ob‘ektlari ijaraga beriladi, kreditlar ajratiladi, uy-joy ipotekasi taqdim etiladi va ularning bandligi ta‘minlanadi;

fuqarolar tomonidan xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish shartnomasi shartlariga asossiz ravishda rioya qilinmagan taqdirda, Jamg‘arma hisobidan ularga ajratilgan subsidiya, kompensatsiya va mikro kreditlar muddatidan avval qaytarib olinishi;

Agentlik doimiy ravishda xorijga ishlash uchun ketayotgan fuqarolarga ketishdan oldin moslashtirish kurslarida xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish shartnomasini buzish oqibatlarini va noqonuniy migratsiyaning xavf-xatarlarini tushuntirib borishi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Abdusalomov) manfaatdor tashkilot va idoralar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-oktabrdagi PQ–367-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya- iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov